

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



60220300-TARIX (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha)

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik fanlaridan

**YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVI
DASTURI**

Toshkent – 2025

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi NIZOMga asosan ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

- | | | |
|-------------------|---|--|
| Alimov Z.I. | - | TDSHU Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasini mudiri, t.f.f.d., dotsent |
| Doniyorov A.X. | - | TDSHU Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasini professori, t.f.d. |
| Alimova R.R. | - | TDSHU Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasini dotsenti, t.f.n. |
| Xudoynazarov I.B. | - | TDSHU Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasini katta o'qituvchisi |
| Karimov N.R. | - | TDSHU Markaziy Osiyo xalqlari tarixi kafedrasini dotsenti, t.f.d. |

Taqrizchilar:

- | | | |
|---------------|---|---|
| Isoqova M.S. | - | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi, t.f.d. |
| Fayziyev X.T. | - | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori, t.f.n. |

Dastur Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil "29" 11 4-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

Mazkur dastur 60220300 - Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining to'rt yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o'qib o'tkaziladigan Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlari uchun ishlab chiqilgan.

Tarix (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi mutaxassislik fanlari va asosiy sharq tiliga tegishli mavzular qamrab olingan.

Universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining barchasida mutaxassislikka mos fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi sinovlari yozma ish shaklida o'tkaziladi. Yozma ishlar topshiriqlari to'rt qismdan iborat qilib belgilanadi va 100 ballik baholash mezonlari qo'llanadi:

1. Birinchi qism **Markaziy Osiyo xalqlari tarixi** – 25 ball;
 2. Ikkinchi qism **Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligiga oid masalalar** – 25 ball;
 3. Uchinchi qism sharq tillaridan tegishli mazmun va hajmdagi matnlarning ona tiliga yozma tarjimasi – 25 ball;
 4. To'rtinchi qism ona tilidan tegishli mazmun va hajmdagi matnlarning sharq tillariga yozma tarjimasi – 25 ball;
- 100 ballik baholash mezonlari dastur nihoyasida keltiriladi.

I. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi

Markaziy Osiyo hududlari yagona tarixiy madaniy mintaqa sifatida ko'plab xalqlarning tarixiy taqdirini o'zida birlashtirganligini e'tiborga olib mintaq xalqlari tarixining umumiyligi, mushtarak ildizlari va yaxlit jarayon sifatida tushuntirishdan iborat. Qadim zamonlardan boshlab ko'plab xalqlarning taqdirini birlashtirgan mushtarak makon Markaziy Osiyo – Oltoy mintaqasi, Sharqiy Turkiston, Tibet, Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, O'rta Osiyo mintaqalaridagi davlatlar, xalqlar, elatlarning qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi kungacha bo'lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti tarixini qamraydi. Markaziy Osiyo mintaqasi yagona tarixiy geografik va tarixiy madaniy mintaq sifatida har tomonlama mushtarak xususiyatga ega. Etnomadaniy nuqtai nazardan ushbu mintaq turkiy va eroniyzabon xalqlar taqdirini birlashtirgan. Turon, Transoksiana, G'arbiy o'lka, Movorounnahr, Ichki Osiyo.

Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi makoni, mintaq xalqlarining tarixiy-madaniy mushtarakligi, Markaziy Osiyoda paleolit: tosh asri lokal (mahalliy) arxeologik madaniyatlarning antropogen xos va umumiy jihatlari,

Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida paleolit davri manzilgohlari va ularning tasnifi, Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida paleolit davri manzilgohlari va ularning tasnifi, Mezolit davrida Markaziy Osiyo Markaziy Osiyoda neolit davri ilk sivilizasion bosqichlari, Markaziy Osiyoda eneolit davri, Ilk shaharchilik, Bronza davrida nomadik va Markaziy Osiyo o'troq madaniyatlari munosabatlari, Markaziy Osiyoda qadimiy diniy tasavvurlar: ibtidoiy diniy mifologik qarashlardan teologik tizimli diniy qarashlar sari, Zardushtiylik, Markaziy Osiyo tarixida Sharqiy Turkiston, Oltoy va Yettisuv o'lkasining o'rni, Markaziy Osiyoning eng qadimgi davlatlari (Markaziy Osiyo hududiy davlatchilik jarayonlari: Xvarasmi, Baxti, Suguda, Margush), Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashlari va Aleksandrning sharqqa yurishlari davrida Markaziy Osiyo: istilochilik va uning oqibatlari, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Yunon-Hind davlatlari, Qadimgi Parfiya va uning Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga ta'siri, Qadimgi Qangxa (Kangyuy) davlati va uning Markaziy Osiyo tarixiga ta'siri, Markaziy Osiyo xalqlari va Xitoy munosabatlari tarixi (qadimiyat va o'rta asrlar), Markaziy Osiyo orqali kechgan qadimiy migrasion jarayonlar va ularning tarixiy hamda etno-madaniy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri, Markaziy Osiyoda Kushonlar imperiyasi: siyosiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jarayonlar, Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi o'rni, Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlardagi migrasion jarayonlar (avtohton, prototurk aholi va ko'chmanchilar o'rtasidagi munosabatlar. Xioniylar va kidariylar davlatlari, Markaziy Osiyoda eftaliylar davlati, Markaziy Osiyoda Turk hoqonligi, V-VIII asrlarda Turk-Sug'd madaniy, ijtimoiy simbiozi masalalari.

VII-IX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol, IX-XIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda siyosiy hayot, Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat ravnaqining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy omillari, umumjahon sivilizasion jarayonlardagi o'rni va ahamiyati, XIII asr boshlari-XIV o'rtalarida Markaziy Osiyo xalqlari mo'g'ul imperiyasi tarkibida, O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari va Xitoy munosabatlari, VII-XIII asrlarda Markaziy Osiyodagi etnik jarayonlar: qarluqlar, qipchoqlar va o'g'uzlar tarkibidan yangi etnik birliklarning ajralib chiqish jarayonlari, Amir Temur va Temuriylar saltanati davrida Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot, So'nggi o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda etnik jarayonlarning yangi bosqichi, Markaziy Osiyoda Rossiyaning mustamlakachilik siyosatining o'rnatilishi, XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarining qo'shni mamlakatlar bilan tashqi diplomatik, savdo-iqtisodiy munosabatlari

Rossiyada 1917 yil fevral inqilobi va O'rta Osiyo hamda Qozog'istondagi siyosiy vaziyat? Qo'qon muxtoriyati va Alash O'rda hukumatlarining tugatilishi Bolshevik rejimining o'rnatilishi, Buxoro amirligi va Xiva xonligida 1917 - 1920 yillardagi ijtimoiy siyosiy vaziyat, Markaziy Osiyoda sovet rejimiga qarshi qurolli Qarshilik harakati, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarining tuzilishi, ichki va tashqi siyosati va ularning tugatilishi, Turkiston ASSR va Qirg'iz (Qozoq) ASSRning tuzilishi, XX asrning 20-yillarida Markaziy Osiyoda xo'jalik iqtisodiy vaziyat, O'rta Osiyo va Qozog'istonda o'tkazilgan milliy chegaralash siyosati va uning oqibatlari, SSSRda industrilashtirish siyosatining O'rta Osiyo Qozog'istonga tatbiq etilishi: ijobiy va salbiy jihatlari, SSSRda kollektivlashtirish siyosatining O'rta Osiyo va Qozog'istondagi oqibatlari, Markaziy Osiyoda SSSRning qatag'onchilik siyosati va uning oqibatlari, XX asrning birinchi yarmida Sharqiy Turkiston, Tibet, Oltoy, Afg'oniston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, Sovet hokimiyatining "Madaniy inqilob" siyosati va uning Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy madaniy hayotiga ta'siri, XX asr 2-yarmida Afg'oniston, Sharqiy Turkiston madaniy hayot tarzining "sovetlashtirilishi", Jahon urushi arafasida va urush yillarida Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli, fashizmga qarshi kurashda frontdagi va front ortidagi umumxalq jasoratlari, urushdan keyingi (1945-1985) yillarda Markaziy Osiyo xalqlarining xo'jalikni qayta tiklashi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti, Markaziy Osiyo respublikalarida XX asr so'nggi choragida siyosiy hayot, Qayta qurish davri va Markaziy Osiyo respublikalarning ahvoli, Markaziy Osiyo xalqlarining XX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy ahvoli, Markaziy Osiyo respublikalarida 1991 yilda davlat mustaqilligining qabul qilinishi. Mustaqil respublikalarning konstitusiyalari, Markaziy Osiyo respublikalari va jahon hamjamiyati, Respublikalarning mintaqaviy muammolarni hal etishdagi hamkorliklari, Markaziy Osiyo respublikalarning milliy istiqlol yo'li, Mustaqillik yillarida iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyoti, Markaziy Osiyo davlatlarining integrasiyalashuv jarayonlari, jahonning yirik davlatlari geosiyosiy manfaatlarining Markaziy Osiyoda to'qnashuvi, XX asr so'nggi choragi – XXI asr boshlarida Afg'oniston va Sharqiy Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoli.

II. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi

Fanni o'rganishdan maqsad – bugungi mustaqillik o'z-o'zidan kelib qolmaganligini bilish ham, jamiyatning tarixiy taraqqiyotini tushunish ham, qadimiy avlod-ajdodlarimiz e'zozlagan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni bebaholigini anglash tarixshunoslikdan boshlanadi. Shuning uchun yoshlarga tarixni to'g'ri, aniq bilishini tushuntirsak, pala-partish holatlarni o'zgartirishga qarshi o'z fikrini va mulohazalarini ayta oladigan bilimli kishilarni kamol toptirishga xizmat

qiladi. Tarixshunoslik tarixiy voqea-hodisalarning sabab va oqibatlari, ularning kelib chiqishini, avloddan avlodga o'tishi, tarqalishi shaklini, takrorlanishini o'rganadi va tahlil qiladi. Shuningdek, tarixshunoslar tomonidan tarixga ob'ektiv yondashish masalalari atroflicha o'rganishdan iborat.

Tarixiy tadqiqot uchun manbalarni turkumlashning ahamiyati. Turkumlashdagi asosiy tamoyillar: manbalarni mazmuniga, kelib chiqishi va yo'nalishiga qarab ajratish. Tarixiy manba. Manbalarning asosiy turlari: moddiy yodgorliklar, ma'naviy yodgorliklar. Tarixiy manbalarning shakl va mazmuniga qarab guruhlariga bo'linishi: moddiy (ashyoviy) manbalar; etnografik manbalar; lingvistik manbalar; og'zaki manbalar (folklor). Yozma manbalar. Manbalarning asosiy xillari. Adabiy manbalar (yilnomalar, xronikalar va h.k.). Epik yodgorliklar. Aktlarga oid hujjatlar (yorliqlar, aktlar, xatlar, yuridik-qozixona hujjatlari va b.). Arxiv manbalar. Normative va ijroiya hujjatlari; statistic materiallar – tarixiy manba. Jamoat tashkilotlari hujjatlari tarixiy manba sifatida. Diplomatik hujjatlar; memuarlar; davriy matbuot.

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Nahshi Rustam, Doro I, Ayratom bitiklari). Avesto-qadimiy yozma yodgorlik; Avestoda Markaziy Osiyo tavsifi. Qadimgi Hind manbalarida Markaziy Osiyo haqida ma'lumotlar. Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mualliflari asarlarida Markaziy Osiyoning qadimgi davr tarixiga oid muhim manba: Gerodot, Diodor, Aristotel, Pompey Torg, Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Gay Pliniy, Plutarx, Polibiy, Strabon, Klavdiy Ptolomey asarlari.

Arab yozuvidagi dastlabki manbalar tarixidan. Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni Karim va uning tafsirlari; Hadislar; Muhammad payg'ambar va xilifalar hayotiga oid asarlar. Fiqhga oid manbalar. Arab tilida yozilgan turli fan sohalariga oid manbalar (filologiya, lug'atlar, filosofiya, medisina, geografiya va b.). Arab tilidagi tarixiy asrlar (al-Madoiniy, Tabariy, al-Balazuriy, al-Ya'qubiy, Beruniy va b.). Fanlar tasnifiga oid asarlar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh al-xorazmiy va b.). IX-XIII asrlar davomida arab tilidagi manbalarning ko'payishi.

Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar. Arab yozuviga o'tish bosqichlari. Forsiy matnlardagi xat turlari. Xattotlik-kasb. Forsiy yozma merosning ko'payib borishi. Eng qadimgi forsiy qo'lyozmalar (islomga oid manbalar; turli fan sohalariga oid asarlar). Bizgacha etib kelgan forsiy yozma meros haqida (Tarjimayi "Tarixi Tabari", Hudud-ul-olam, Jahonnoma, "Zayn-ul-axbor" Gardiziy asari; Firdavsiy "Shohnoma" va b.).

Turkiy yozma merosning ko'lami. Turkiy tillardagi yozma merosning shakl jihatdan tarkibi; nazmda yozilgan asarlar, islomga oid asarlar, tarjima asarlar (arab va forsiy tillardan), sharqlar. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozma asarlarning miqdoriy ko'rsatkichlari (jahon qo'lyozma xazinalaridagi salmohi). Turkiy

qo'lyozmalarning mazmuniy tarkibi: tarix, xronologiya, yozishmalar, biografiya, shajara, geografiya, bibliografiya, astronomiya, ensiklopediya, medisina, falsafa, etika, matematika va h.k. Arab yozuvidagi turkiy qo'lyozmalarning tashqi belgilariga qarab bo'linishi. Turkiy qo'lyozmalarni o'rganish: Qutadg'u bilik, Tarixi muluki ajam, Qur'on tafsiri, hissasi Rabg'uziy, Shayboniynoma, Tavorixi guzida va b.

Qo'lyozma asarlar tarixidan va ularning hududiy qamrovi. Arab tilidagi yozma meros va uning tarqalishi. qo'lyozmalarning jahon bo'ylab tarqalish sabablari. Sharq qo'lyozmalarining Yevropaga tarqalishi. Sharq qo'lyozmalarining turli mamlakatlardagi miqdoriy ko'rsatkichi. qo'lyozmalar xazinalari: Misr, Eron, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Rossiya, O'zbekiston. Sharq qo'lyozmalarini tavsiflash va kataloglar chop etilishi tarixidan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasini.

Markaziy Osiyo tarixi aks etgan IX-XV asrlarda yozilgan arab tilidagi yozma manbalar: al-Madoiniy "Axbor al-xulafo", al-Ya'qubiy "Kitob al-buldon", Balazuriy "Kitob futuh al-buldon", Tabariy "Tarix ar-rusul va-l-muluk", Ibn Fazlon "Risola", al-Mas'udiy "Muruj az-zahab", Utbiy "Tarixi Yaminiy", Abu Abdulloh al-xorazmiy "Mafotih al-ulum", Abu Rayhon Beruniy "Osor al-boqiya", Mahmud Koshqariy "Devonu lug'at at-turk", Sam'oniyy "Kitob al-ansob", Ibn al-Asir "Al-Komil fi-t-tarix", Yog'ut Qamaviy "Mu'jam al-buldon", Muhammad Nasaviy "Sirat as-sulton Jaloliddin", Jamol qarshi "Mulhaqat as-surog'".

Markaziy Osiyo tarixi aks etgan IX-XV asrlarda yozilgan fors tilidagi yozma manbalar: Narshaxiy "Buxoro tarixi", "Hudud ul-olam", Nizomulmuluk "Siyosatnoma", Nizomi Aruzi Samarqandiy "Chor maqola", Gardiziy "Zayn ul-axbor", Abulfazl Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy", Avfiy "Javomi' al-hikoyot", Juvayniy "Tarixi jahongushoy", Rashidaddin "Jome' at-tavorix", Hamdalloh Qazvinii "Tarixi guzida". Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar: Nizomiddiy Shomiy "Zafarnoma", Muiniddin Natanzii "Muntaxab at-tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiy "Matla as-sa'dayn", Mirxond "Ravzat as-safo".

Markaziy Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid forsh-tojik tilidagi yozma manbalar: Mulla Shodiy "Fathnoma", Fazlulloh ibn Ruzbixon "Mehmonnomai Buxoro", xondamir "Habib as-siyar", Zayniddin Vosifiy "Badoe' ul-vaqoe'", Mirzo Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy", Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma", Mahmud ibn Valiy "Bahr ul-asror", xoja Samandar Termiziy "Dastur al-muluk", Muhammad Yusuf Munshiy "Tarixi Muqimxoniy", Mir Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanoma", Abdurrahmon Davlat "Tarixi Abulfayzxon", Mir Muhammad Salim "Silsilat as-salotin", Muhammad Vafo Karminagiy "Tuhfai xoniy", Mir Olim

Buxoriy "Fathnomayi sultoni", Axmad Donish "Navodir al-vaqoe", Abduazim Somiy "Tarixi salotini mang'itiya", Mirzo Salimbek "Tarixi Salimiy", Muhammad Solih "Tarixi jadidayi Toshkand", Niyoz Muhammad xo'qandiy "Tarixi Shohruxiy". O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalar: anonim "Tavorixi guzida" ("Nusratnoma"), Muhammad Solih "Shayboniynoma", Zahiriddin Bobur "Boburnoma", Abulg'azi Bahodurxon "Shajarayi tarokima", "Shajarayi turk va mo'g'ul", Munis va Ogahiy "Firdavs ul-iqbol", Mirzo Olim Toshkandiy "Ansob as-salotin".

Markaziy Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan evropa tillaridagi yozma ma'lumotlar: Sayyoh va elchilar Marko Polo, Rui Gonsales de Klavixo va Antonio Jenkinson kundaliklari. XVII-XVIII asrlar rus va evropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi: I.D.Xoxlov ma'lumotlari; "Kniga Bolshomu cherteju"; B.A.Pazuxin va S.I. Pazuxin ma'lumotlari; Florio Benevini axboroti; V.N.Tatig'ev «Leksikon geograficheskoy i politicheskoy»; D.Gladhshev va Muravin ma'lumotlari; F.Efremov safarnomasi, T.Burnashevning O'rta Osiyoga safari xotiralari; F.Nazarov safarnomasi; N.Muravev ma'lumotlari; E.K.Meyendorf safarnomasi; G.Spasskiy "Aziatskiy vestnik" materiallari va boshqalar. O'rta Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan istilo qilinishi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi materiallari O'rta Osiyo tarixiga oid manba. Turkistonni o'rgangan rus olimlarining asarlari tarixiy manba sifatida. Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi materiallari muhim tarixiy manba. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkistonga oid statistik ma'lumotlar, arxiv materiallar va davriy matbuot ("Turkestanskije vedomosti", "Turkestanskiy vestnik" va b.) xabarlar tarixiy manba sifatida.

Rossiyadagi fevral inqilobi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar. Oktyabr voqealaridan keyin Turkistonda Sho'rolar hukumati tashkil topishi va yangi davlat tarixi bilan bog'liq manbalar. Sovet hokimiyatining dekretlari. Sovetlar s'ezdlarining qarorlari, partiya tashkilotlarining hujjatlari manba sifatida. Turkistonda muxtoriyatchilik va istiqloqlolchilik harakati tarixiga oid hujjatlar tarixiy manba sifatida. Markaziy Osiyoda milliy chegaralash tarixiga oid hujjatlar. Markaziy Osiyo davlatlarining 1941-yillargacha tarixini yorituvchi manbalar; qatag'onlar tarixi aks etgan hujjatlar. 1941-1945 yillar urushi tarixiga oid materiallar. 1945-yildan mustaqillikkacha bo'lgan tarixiga oid hujjatlar. Statistik to'plamlar. Ish yuritish hujjatlari.

Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishiga oid materiallar. Mustaqil Respublikalarning demokratik davlat tizimini barpo etishga doir hujjatlari tarixiy manba sifatida. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov asarlari mustaqil

O'zbekiston tarixi bo'yicha asosiy manba. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni nashrlari, O'zbekiston Oliy Majlis hujjatlari muhim tarixiy manba. Mustaqillik davri turli hujjatlari, statistik ma'lumotlar, nashr materiallari, matbuot materiallari va boshqa ma'lumotlar tarixiy manba sifatida.

Tarixshunoslik haqida tushuncha. Tarixshunoslik fani predmeti, uning maqsad va vazifalari. Tarixshunoslik fanining boshqa tarixiy fanlar bilan bog'liqligi. O'zbekistonda tarixshunoslikning fan sifatida paydo bo'lishi.

Zardushtiylik tarixshunosligi. Zardushtiylik dinining vujudga kelishi, "Avesto"ni o'rganish tarixi. Avesto – qadimgi yozma tarixiy asar. Mustaqillik yillarida "Avesto" tarixshunosligi.

Toshbitiklar va yilnomalar – eng qadimgi yozma tarix manbalari. O'rxun-Yenisey, Kul-Tegin va Bilga-Hoqon bitiklari. Ahomoniylar davri mixsimon yozuvlar. Rimlik, yunon va xitoy yilnomachilari asarlarida Markaziy Osiyo tarixshunosligi (Gerodot, Fukidid, Arastu, Plutarx, Gomer, Strabon, Diodor, Yustin. Ban Gu, Li Yan-shou va b.). Eron Ahomoniylari, yunon-makedon bosqini va ularga qarshi kurashning tarixiy adabiyotlarda yoritilishi. Markaziy Osiyo hududida qadimgi davlatlar tarixshunosligi.

Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda tarixiy bilimlarining rivojlanishi. Tarixiy adabiyotlar eftalitlar davri va Turk xoqonligi tarixining yoritilishi. Turkiy yozuvdagi dastlabki bitiklar. Musulmon tarixnavisligi, uning ijtimoiy tafakkuri va madaniy saviyasi. Arablar bosqini va Markaziy Osiyo xalqlarining istilochilarga qarshi kurashi tarixshunosligi (Tabariy, Narshaxiy). Musulmon uyg'onishi davri va uning Markaziy Osiyoga ta'siri. Dunyoviy va diniy bilimlarning bir-biriga ta'siri. Abu Rayhon Beruniy tarixiy asarlarining tarixshunoslikdagi o'rni. Bayhaqiy, Bag'dodiy, Yusuf Xorazmiy as Sam'oniylar, Maqdisiy va boshqalarning tarixshunoslikdagi o'rni.

Musulmon uyg'onish davrining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi, Markaziy Osiyo xalqlarining IX-XII asrlar davri tarixini o'rganishda A.Mestning, M.Koshg'ariyning, Nizomulmulk, Gardiziy, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy, Bayhaqiy, Muhammad ibn Nadjib Bekran, Ibn al-Asir, Hamidulloh Qazvinii, Madoiniy, Al-Yaqubiy, Ibn al-Faqih, Ibn Xurdadbek, Tabariy, Al-Mas'udiy, Istahriy, Ibn Havqal, Al-Muqaddasiy, Utbiy, As-Saolibiy, Yoqut Hamaviy kabi asarlari muhim manba sifatida, Uyg'onish davrining Markaziy Osiyoga ta'siri.

O'zbekiston hududidagi dastlabki etnografik tadqiqotlar. O'zbek xalqining shakllanish tarixi. O'zbek xalqining shakllanishida turli davrlardagi o'ziga xos xususiyatlar. Turli elat va urug' vakillarining aralashuvi jarayoni.

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Zamonaviy avtohton aholining etnik tarkibi. Lingvistik va antropologik tasniflashdagi xususiyatlar. "O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i" tipi. Qadimgi o'troq va ko'chmanchi aholi irqiy tiplari. O'zbekistonda etnografiya fanining rivojlanish bosqichlari. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. O'zbeklar etnogenezida ishtirok etgan etnik komponentlar. O'zbek milliy mentaliteti. Xalqining dehqonchilik xo'jaligi, chorvachilikning o'ziga xos jihatlari, uy qurilishi, kiyimlari, taomlari, oilaviy xo'jalikda bajariladigan turli marosimlar tarixshunosligi.

Xorazmshohlar davlati tarixining adabiyotlarda yoritilishi. Mo'g'ullarning Markaziy Osiyoga hujumi tarixshunosligi. An-Nasaviyning asari. Arab tarixnavisi Ibn al-Asir. Juvayniy, Rashididdin, Muhammad Nisoviy asarlari. Mo'g'ullarga qarshi milliy-ozodlik kurashining tarixchilar tomonidan o'rganilishi. XIII-XIV asrlarda yaratilgan Markaziy Osiyo xalqlari tarixini yorituvchi mualliflar asarlarida Markaziy Osiyoda mo'g'ullar hujumidan keying tarixiy voqealarning yoritilishi.

Amir Temur davri tarixshunosligi davrlari va ularning xususiyatlari. «Temur tuzuklari». Amir Temur davlati tarixining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi. G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh asarlari. Rui Gonzales de Klavixo kundaligi. Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abro' asarlari. Temuriylar davri tarixshunosligi. Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Ulug'bek, Mirxond, Xondamir, Juvayniy, Fasix Havofiy, Jamol Qarshiy, Muhammad Ibrohim Atoiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyning asarlari muhim manba sifatida. Tarixiy bilimlar taraqqiyotining xususiyati. Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligining bugungi kundagi dolzarb muammolari.

XVI-XIX asrda Markaziy Osiyo haqidagi tarixiy manbalarni o'rganishning ba'zi bir masalalari. XVI-XIX asr oxirlarida Markaziy Osiyo haqidagi tarixiy jo'g'rofiy asarlar. «Tavorixi guzide» va «Nusratnoma». Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma» asari. Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro'zbexon asarlari. Shayboniylar davrida Turkiston xalqlari tarixining yoritilishi. XVI asr tarixnavislari asarlarida voqaealar bayoni usullari, xususiyati.

XVII-XVIII asrlarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi tarixshunosligi. Muhammadyor ibn Arab Qatag'on, Mir Muhammad Amin Buxoriy, Abdurahmon Tole, Muhammad Yusuf Munshi va boshqalarning asarlarida tarixiy voqaealar tasviri. «Baxr-ul asror» Buxoro xonligini XVII asr tarixini o'rganishda muhim manba. Buxoro xonligining XVIII asrdagi tarixshunosligi. Xiva xonligi tarixining adabiyotlarda yoritilishi.

Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishini o'rganilishi. Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy voqaealarga munosabati. Mirzo Abdulazim Somiyning asarlarida Mang'itlar sulolasiga munosabat. Rossiya-Buxoro urushi, Buxoro

amirligi tarixi tarixnavisligi. Avaz Muhammad Attor Ho'kandi, Mullo Yunusjon Munshiy, Mirzo Olim Mushrif, Muhammad Solih Toshkandiy, Muhammad Yunus Toib, Muhammad Aziz Marg'iloniy asarlarida Qo'qon xonligiga rus istilosi talqini. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati tarixshunosligi. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tuzumiga qarshi Turkiston xalqlari milliy ozodlik harakatining sovet davri tarixshunosligida yoritilishi. Milliy ozodlik harakatining mustaqillik yillari tarixshunosligi.

Sovetlar davrida O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi. 1920-30 yillardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot tarixshunosligi. O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushi yillaridagi va 50-80 yillar tarixshunosligi. Zaki Validiy To'g'on, G.I.Safarov asarlari. Markaziy Osiyo xalqlarining istiqlol uchun kurashlari bayoni. Sovetlar davrida O'zbekistonda tarix fani rivoji. Sovetlar davrida yaratilgan ilmiy-tarixiy asarlar. Tarix faniga davr ta'siri. Qayta qurish davrida tarixnavislikda erkin fikrlash, xolislik.

O'zbekiston tarix fani taraqqiyotidagi yangi bosqich. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarixini o'rganishda I.A.Karimov asarlarining ahamiyati. «O'zbekistonning yangi tarixi markazi»ni tashkil etilishi. O'zR FA Tarix Instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi O'zR Vazirlar Mahkamasining Qarori (1998). O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti tarixshunosligi.

“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fanidan Davlat attestatsiyasi savollari

1. “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fanining qadimgi davr manbalari
2. “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” fanining metodologik asoslari
3. Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi makoni
4. Markaziy Osiyoda paleolit: arxeologik madaniyatlarning antropogen xos va umumiy jihatlari
5. Markaziy Osiyoda neolit davri ilk sivilizatsion bosqichlari (xo'jalik tiplari taraqqiyoti dinamikasining tahlili)
6. Markaziy Osiyoning eng qadimgi shaharlari tarixiga doir ma'lumotlar tahlili
7. Ilk temir davrida Markaziy Osiyo hududiy davlatchilik jarayonlari
8. Qadimgi Yunon-Baqtriya va Yunon-Hind davlatlari
9. Qadimgi Qang' (kangyuy) davlati
10. Markaziy Osiyo orqali kechgan qadimiy migratsion jarayonlar (avtohton, prototurk aholi va ko'chmanchilar o'rtasidagi munosabatlar)
11. Markaziy Osiyoda Kushonlar imperiyasi: siyosiy-ijtimoiy va madaniy-tarixiy jarayonlar

12. Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotidagi o'rni
13. Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlardagi migratsion jarayonlar (Xioniylar va kidariylar davlati)
14. Ilk o'rta asrlarda Choch va Eloq
15. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona
16. Ilk o'rta asrlarda Sug'd
17. Ilk o'rta asrlarda Xorazm
18. Turgashlar davlatining Markaziy Osiyoda tutgan o'rni.
19. Uyg'ur xoqonligining paydo bo'lishi.
20. Qarluqlar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
21. Somoniylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
22. Xorazmshohlarning markaziy davlat boshqaruv tizimi, mansab va lavozimlar.
23. IX-XIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyat ravnaqiga ta'sir ko'rsatgan omillar.
24. IX-XIII asrlarda Oltoy.
25. XIII asr boshlari - XIV asr o'rtalarida Markaziy Osiyo xalqlari mo'g'ul imperiyasi tarkibida.
26. Amir Temurning markazlashgan davlatga asos solishi.
27. Amir Temur va temiriylar davlatining xorij davlatlari bilan diplomatik munosabatlari.
28. Ko'chmanchi o'zbeklar davlatining tashkil topishi.
29. Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
30. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
31. Qozoq xonligining tashkil topishi.
32. XVIII asr ikkinchi yarmi - XIX asrda Sharqiy Turkiston.
33. Rossiya ma'muriy boshqaruv tizimining mustamlakachilik maqsadlariga moslashtirilishi.
34. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklarining Rossiy bilan diplomatik munosabatlari.
35. Rossiya mustamlakachiligiga qarshi Markaziy Osiyodagi xalq harakatlari.
36. Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligida 1917 - 1920 yillardagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat.
37. Turkiston muxtoriyati va Alash O'rda hukumatlarining tashkil topishi va tugatilishi. Turkistonda sovetlar hukumatining o'rnatilishi. Zo'ravonlik siyosatining boshlanishi.

38. «Harbiy kommunizm» siyosati va uning oqibatlari. Markaziy Osiyoda yangi iqtisodiy siyosat (YalS)ning tatbiq etilishi.

39. Markaziy Osiyoda sovet rejimiga qarshi qurolli Qarshilik harakatining kelib chiqishi sabablari va harakatning olib borilishi va bostirilishi.

40. Buxoro va Xorazm xalq respublikalarining tuzilishi, ichki va tashqi siyosati hamda ularning tugatilish

41. Mintaqada milliy chegaralanish siyosatining o'tkazilishi. Milliy manfaatlarning poy-mol etilishi.

42. Markaziy Osiyoda jamoalashtirish siyosatining amalga oshirilishi. Xususiy mulkning tugatilishi. Jamoalashtirish siyosatining oqibatlari.

43. Industrlashtirish siyosati va uning Markaziy Osiyo respublikalariga tatbiq etilishi. Markaziy Osiyoda industrlashtirish siyosatining ijobiy va salbiy jihatlari.

44. Sovet hokimiyatining "Madaniy inqilob" siyosati va uning Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy madaniy hayotiga ta'siri.

45. XX asrning birinchi yarmida Sharqiy Turkiston, Tibet va Afg'oniston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayoti

46. XX asr 2-yarmida Sharqiy Turkiston va Afg'onistonda madaniy hayot tarzining "sovetlashtirilishi".

47. Markaziy Osiyoda SSSR qatag'onchilik siyosati va uning oqibatlari

48. Ikkinchi jahon urushi arafasida va urush yillarida Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy iqtisodiy ahvoli. Fashizmga qarshi kurashda frontdagi va front ortidagi umumxalq jasoratlari.

49. Mintaqada urushdan keyingi qurilish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va rivojlanish muammolari.

50. Markaziy Osiyo respublikalarining qayta qurish siyosatiga jalb etilishi

51. XX asrning so'nggi choragida Markaziy Osiyo respublikalarini mustaqillikka bo'lgan harakatlari.

52. 2016-2020 yillarda O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy holati.

53. XX asr ikkinchi yarmi Afg'onistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoli.

54. XX asr ikkinchi yarmida Sharqiy Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoli.

55. Markaziy Osiyo respublikalarining BMTga a'zo bo'lishi hamda tashqi hamkorlik aloqalari.

56. Jahonning yirik davlatlari geosiyosiy manfaatlarining Markaziy Osiyoda to'qnashuvi.

57. Dunyoda bipolyar tizimining yemirilishi. Mustaqil respublikalarning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. Markaziy Osiyoda mintakaviy

barqarorlik va tinchlik uchun hamkorlik. Mintaqaviy muammolarni xalqaro doiraga olib chiqilishida Markaziy Osiyo respublikalarining o'rnini.

58. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining tashkil topishi. MDH doirasida integratsiyalashuv jarayonlari. Orol dengizi muammosini bartiraf qilishda qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

59. Respublikalarning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida integratsiyalashuv jarayonlari. Energoresurslardan hamkorlikda foydalanish bilan bog'liq integratsion jarayonlar.

60. AQSh, Rossiya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari.

III. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi

1. Manbashunoslik fanining maqsad va vazifalari.
2. Manbalarning turlari: yozma manbalar.
3. Etnografik manbalar.
4. Lingvistik manbalar.
5. Manbashunoslikning yo'nalishlari.
6. Manbashunoslikning nazariy va amaliy muammolari.
7. Manbalarga tasnifiy, taxliliy, va talqiniy yondoshuv tamoyillari.
8. Tarixiy manbalarda muallif qarashlari va tarixiy reallik masalasi.
9. Qadimiy Markaziy Osiyo yozma yodgorliklari manbashunosligi (Islom davrigacha)
10. Manbalarning kodikologik ma'lumotlarini aniqlash.
11. Tarixiy manbalarni janr yo'nalishlari bo'yicha tasnif qilish.
12. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvlari va yozuv madaniyati, xorazmiy, sug'diy, boxtariy, parfiyoniy, turkiy, turkiy-uyg'ur yozuvlarining manbaviy ahamiyati.
13. Sug'd yozma yodgorliklari tarixiy manba sifatida (Mug' tog'i sug'd hujjatlari asosida).
14. Xorazmning Tuproqqala yodgorligidan topilgan xorazmiy yozuvi yodgorliklarining tarixiy manbashunoslik tahlili.
15. Tarixiy yozma manbalarning turlari va tasnifi tamoyillari.
16. Yunon muarrixlari va geograflarining Markaziy Osiyo haqidagi asarlari haqida umumiy ma'lumot.
17. Gerodotning "Tarix" asarida O'rta Osiyo xalqlari ajdodlari tarixiga oid ma'lumotlar tahlili va ilmiy-amaliy bahosi.
18. Qadimgi turkiy "runiy" yozma yodgorliklarning tarixiy manbaviy tafsiloti va ahamiyati.

19. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tarixiy manba sifatida.
20. Buyuk ipak yo'li bo'ylab sug'd yozma yodgorliklarining tarqalishi va ularning Turk xoqonligi tarixi bilan bog'liq namunalari: Bug'ut sug'd yodgorligi, Niri qo'rg'on qabr toshida.
21. IX-X asrlarga oid arab tilli manbalarda Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasiga oid ma'lumotlar: (Ya'qubiy, Ibn Xurdodbeh, al-Istaxriy, Ibn Xavqal va boshqalar).
22. XI-XIII asrlarga oid yozma manbalar (Balazuriy, Abu Yusuf Ya'qub, Ibn al-Fakih, at-Tabariy, Rashididdin va boshqalar).
23. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk" asarining tarixiy manbaviy tahlili.
24. Narshaxiy va uning "Buxoro tarixi" asari Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha ilk tarixiy asar sifatida.
25. Mo'g'ullar istilosi va hukmronligi davri yozma manbalari (Ibn al-Asir, Shahobuddin Muhammad an-Nisoviy, Juvayniy, Rashiduddin va Qazviniiy).
26. Temuriylar tarixiga oid yozma manbalarning qiyosiy tahlili.
27. "Temur tuzuklari" asari va uning davlatchilik tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
28. Zahiriddin Muhammad Bobur tarixchi va etnograf olim sifatida.
29. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri yozma manbalari va ularning tahlili.
30. Xorazm tarixchilik maktabi va unda yaratilgan nodir yozma manbalar tafsiloti (XVIII-XX asrlar).
31. Qo'qon xonligida tarix ilmining rivojlanishi (XVIII-XIX asrlar).
32. Buxoro tarixiga oid yozma manbalar (XVIII-XIX asrlar).
33. Jo'ybor shayxlari arxivi tarixiy manba sifatida o'rganilishi.
34. Xiva xonligi qozilik arxivi va ularning o'rganilishi.
35. Vaqf hujjatlari o'zbek xonliklari tarixini o'rganishda muhim manba.
36. Turkistonning Rossiya tomonidan istilo qilinishi rus manbalarida.
37. Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanish tarixi mahalliy manbalarda.
38. Mustamlakachilik davri tarixiga oid arxiv fondlari va ularning tahlili (XX asr).
39. Numizmatik materiallarining Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
40. Tarixshunoslik fani predmeti, maqsadi va vazifalari. Tarixshunoslikning fan sifatida shakllanishi.
41. Tarixshunoslikning nazariy-metodologik asoslari. Tarixshunoslik tadqiqotlarning tahlil usullari.

42. Tarixshunoslik fanida tadqiqotchining vazifasi. Xolisona va haqqoniy arixni yaratish - tarix fanining bosh maqsadi sifatida.
43. Tarixshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Fanlararo yondashuvning mazmuni.
44. Markaziy Osiyo qadimiy davlatlari: Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Qang' davlatlari tarixshunosligi.
45. Avesta va zardushtiylik ta'limoti o'rganilish tarixidan.
46. Xiyoniylar, kidariylar (toxarlar) va eftallarning manbalarda yoritilishi masalasi.
47. Arab istilosi va musulmon uyg'onish davri tarixshunosligi.
48. Ma'mun akademiyasining ilm-fan taraqqiyotidagi ahamiyatini.
49. O'rta asr tarixchilarining tarixnavislik an'analari: umumiy va xos tarix yaratish usullari.
50. A.Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi (mustaqillik davri).
51. A.Temur va Temuriylar davri tarixshunosligi (sovet davri).
52. Xiva xonligi davri tarixshunosligi.
53. Qo'qon xonligi davri tarixshunosligi.
54. Jadidchilik harakati tarixshunosligidagi zamonaviy qarashlar.
55. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasining o'rganilishi va adabiyotlarda yoritilishi.
56. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining O'zbekiston mustaqillik yillaridagi tarixshunosligi.
57. Mustaqillik yillarida milliy-ozodlik harakatlari.
58. Milliy ozodlik kurashlari (XIX-XX asr boshlari) davri tarixshunosligi.
59. O'zbekistonda tarix ilmi rivoji va uning asosiy bosqichlari tahlili
60. O'zbekistonda "Tarixshunoslik" yo'nalishining vujudga kelishi va asosiy natijalari.
61. Boris Luninning tarixshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi.
62. Mustaqillik yillarida tarixshunoslik sohasi va uning rivoji.
63. Tarixshunoslikda tarixiy fakt va tarixchining o'rni.
64. Tarixshunoslik tadqiqot usullari: qiyosiy-tarixiy, konkret tahlil, xronologik, davrlashtirish.
65. Tarixshunoslik tadqiqot usullari: retrospektiv, dolzarblashuv, bashorat qilish, madaniy-antropologik.

III. MUTAXASSISLIKKA OID MATNNI O'RGANILGAN SHARQ TILIDAN ONA TILIGA TARJIMA QILISH (800-1000 b.b.)

Arab tilida:

يُمثل تاريخ حضارة ما وراء النهر أحد الاتجاهات العلمية المهمة في دراسة التطور الثقافي والسياسي للعالم الإسلامي، من خلال إبراز الخصوصية التاريخية التي تميز مدن سمرقند وبخارى وفرغانة وخوارزم. ويظهر هذا الإقليم بوصفه فضاء حضارياً قائماً عند ملتقى الشرق والغرب، مع تكون روابط ثقافية متبادلة بين الشعوب الإيرانية والتركية والعربية منذ العصور القديمة.

وتتجلى البيئة العلمية للمنطقة خلال عهدي السامانيين والقراخانيين في صورة ازدهار استثنائي، حيث يبرز عدد من كبار العلماء في ميادين الحديث والكلام والفقه والفلسفة والطب والرياضيات. وتعد أعمال الإمام البخاري والإمام الترمذي وأبي منصور الماتريدي، إلى جانب ابن سينا والخوارزمي، شواهد بارزة على هذا الارتقاء العلمي، ما يجعل مدن ما وراء النهر مراكز معرفية ذات تأثير واسع في محيطها.

أما المشهد الاقتصادي فيتشكل على أساس الدور المحوري لطريق الحرير، إذ تغدو سمرقند وبخارى مراكز تجارية كبرى تلتقي فيها القوافل القادمة من الصين والهند وإيران والعالم العربي. وتظهر الصناعات الحرفية، مثل النسيج وصناعة الورق والفخار، كعناصر أساسية في البنية الاقتصادية للإقليم.

وفي البنية السياسية يبرز النظام الإداري في عهد السامانيين بوصفه عاملاً رئيسياً في تحقيق الاستقرار. ومع العهد التيموري، تبلغ العمارة السمرقندية ذروة الجمال والروعة، حيث تمثل القباب الزرقاء والمدارس الضخمة تجسيداً للذائقة الفنية الرفيعة في المنطقة.

ويمثل تاريخ ما وراء النهر نموذجاً حضارياً متكاملًا يقوم على التفاعل بين العلم والدين والاقتصاد والفن، مما يضفي عليه مكانة علمية وثقافية بارزة.

Fors tilida:

ابوعبد الله محمد بن موسى خوارزمي رياضيدان، ستارهشناس و مورخ معروف، به احتمال زياد از حدود سال ۱۷۰ تا پس از ۲۳۲ هجری قمری در عهد عباسی زندگی کرده است.

بیشترین شهرت خوارزمی به دلیل فعالیت‌های او در زمینه ریاضیات به ویژه جبر است که باعث شد او را پدر جبر بنامند و در زمان قرون وسطی توانست تأثیر زیادی در فکر ریاضی داشته باشد. تحقیقات و تألیفات این شخصیت بنام قرون وسطی هنوز مورد استفاده است و کتاب جبر و مقابله او را بسیاری از مترجمان مشهور قرون وسطی ترجمه کرده‌اند.

بیشترین چیره‌دستی خوارزمی در حل معادله‌های خطی و درجه دوم بوده است. کتاب که ترجمه کتاب جمع و تفريق با عددهای هندی او به لاتین است باعث شد تا دستگاه عددی در اروپا از عددنویسی رومی به عددنویسی هندی-عربی تغییر یابد؛ چیزی که هنوز نیز در اروپا و دیگر نقاط جهان فراگیر است. همچنین واژه جبر را اروپائیان به‌طور کلی از کتاب خوارزمی و اصطلاح امروزی الگوریتم از نام خوارزمی گرفته شده است.

اگرچه خوارزمی صاحب آثار متعدد و فراوان در زمینه‌های گوناگون علمی است اما در مورد زندگی، تاریخ و محل تولد او اتفاق نظری نیست. برخی تولد وی را از حدود ۱۶۴ هجری قمری تا ۱۸۴ هجری قمری ذکر کرده‌اند و مرگ وی در سال ۲۳۲ هجری قمری قابل اعتمادتر است.

IV MUTAXASSISLIKKA OID MATNNI ONA-TILIDAN O'RGANILGAN SHARQ TILIGA TARJIMA QILISH(800-1000 b.b.)

VI asr o'rtalarida Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat tarixga Turk xoqonligi nomi bilan kirgan. Uning asoschisi Bumin edi. 552-yilda Bumin "xoqon" deb e'lon qilindi.

Xoqonlikning markazi etib Oltoy shahri belgilanadi. Turklarning g'arbga tomon yurishlariga Istami boshchilik qiladi. Unga "Yabg'u xoqon" degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan hududlarda yashovchi turkiy qabilalar bo'ysundiriladi. 555-yildayoq turklar Sirdaryo va Orol dengizigacha bo'lgan yerlarni egallaydi. Xoqonlik chegarasi Eftallar davlati chegarasigacha tutashib ketgan. Natijada Eftallar davlatining shimoliy hududlari xavf ostida qolgan. Qulay vaziyatdan foydalangan sosoniylar Toxariston va Chag'oniyonni eftallardan tortib oladi.

Turk xoqonligining eftallar bilan to'qnashishi muqarrar edi. Bunday murakkab siyosiy vaziyat xoqonlikni Eron, so'ngra Vizantiya bilan yaqinlashtiradi. Uzoq vaqt eftallar tazyiqida yashagan sosoniylar bu davlatning tamomila barbod bo'lishidan manfaatdor edi. Shu tariqa Sosoniylar shohi Xusrav I Anushervon (O'lmas) tashabbusi bilan yangi ittifoq yuzaga keladi. O'zaro harbiy ittifoq Eron shohining Istamiga kuyov bo'lishi orqali mustahkamlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining mutaxassislik fanlaridan yozma ishlar topshiriqlari bo'yicha talabalar bilimini baholash mezonlari

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarini baholash uchun maksimal baho - **100 ball** etib belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi biletlarining har birida 4 tadan savol bo'lib, ular quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1. Birinchi va ikkinchi savollar mutaxassislik fanlariga tegishli bo'ladi. Ularning har biriga yozilgan javoblarni baholash **25 ball** doirasida amalga oshiriladi.

Savol bo'yicha javoblarni baholash quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog'liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada yuritish iqtidori mavjudligi;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- keltirilgan faktlarning hozirgi davrdagi jarayonlar, o'zgarishlar bilan o'zaro aloqadorlikda ochib berilganligi, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to'g'ri yoritilganligi;
- muammoni tizimli mustaqil tahlil qilganligi, o'z fikrini erkin va mustaqil ifoda eta olganligi.

BAHOLASH SHKALASI:

1. Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan va har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **21.5-25 ballgacha - a'lo** baho qo'yiladi.

2. Savolga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, **17.6-21.4 ballgacha - yaxshi** baho qo'yiladi.

3. Savolga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo'lsa, **14-17.5 ballgacha - qoniqarli** baho qo'yiladi.

4. Fikr aniq ifoda etilmagan, savolga qisman bo'lsada to'g'ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o'quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **0-13.9 ballgacha - qoniqarsiz** baho qo'yiladi.

2. Uchinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800-1000 belgi atrofidagi hajmga ega sharq tilidagi matnni ona tiliga tarjima qilinadi.

3. To'rtinchi savol bo'yicha mutaxassislikka oid (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, badiiy) mavzulardagi va 800 - 1000 belgi atrofidagi hajmga ega ona tilidagi matnni sharq tiliga tarjima qilinadi.

Yozma tarjimani baholashda **25 ballik mezon** qo'llanadi. Matn tarjimasi quyidagi mezon asosida baholanadi:

BAHOLASH SHKALASI:

a) matnni to'liq 100% tarjima qilsa	25 ball
b) 90 % tarjima qilsa	22.5 ball
v) 80% tarjima qilsa	20 ball
g) 70% tarjima qilsa	17.5 ball
d) 60% tarjima qilsa	15 ball
e) 50% tarjima qilsa	12.5 ball
j) 50% dan kam tarjima qilsa	0 ball

Tarjima hajmidan kelib chiqib, baholashda oraliq ballar korsatkichlari ham qollanishi mumkin.

Yozma ish natijalari bo'yicha sinov yakunida yig'ilgan ballar jamlanadi va quyidagicha baholanadi:

1. 90 - 100 ballgacha - "a'lo";
2. 70 - 89 ballgacha - "yaxshi";
3. 60 - 69 ballgacha - "qoniqarli";
4. 0 - 59 ballgacha - "qoniqarsiz"

100 ballik va 5 ballik baholash tizimlarining ўzaro mosligi jadvali

5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

ESLATMA: Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya Appellyatsiya komissiyasi tomonidan 1 kun ichida ko'rib chiqiladi hamda DAK raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 48 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.

5. Alimova R.R. Markazi Osiyo xalqlari tarixi (o'rta asrlar). –Toshkent. 2013.

6. Алимова Д. ва б. Ўзбекистон тарихи 1917-1981. 5-нашри. Тошкент: Шарк, 2006.
7. Дониёров А. Х. Марказий Осиё халклари тарихшунослиги / Дарслик. Тошкент: НИФ МШ, 2020. 442 б.
8. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. O'quv qo'llanma. –Т., TDSHI, 2014.
9. Doniyorov A.X., Bo'riev O., Ashirov A.A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDSHI, 2013.
10. Is'hoqov M.M., Xudoynazarov I.B. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. O'quv qo'llanma, TDSHI, 2019.
11. Xodjayev A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga old ma'lumotlar, T., 1-2 qism, 2014. -332 b.
12. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Т., 2000.
13. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Т. 2015.
14. Артикбаев Ж.О. История Казахстана. – Костанай. 2007.
15. Кан Г. История Казахстана. – Алма-Ата. 2007.
16. Осмонов О.Дж. История Киргизстана (С древнейших времен до наших дней). Учебник для вузов. – Бишкек. 2008.
17. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 1, 2-китоб. (2/1, 2/2). – Тошкент. “Фан”, 2014.
18. Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Т. 1. – Т., 2000.
19. History of civilizations of Sentral Asia. Volume VI. UNESCO, Paris. 1992-2005.

Internet saytlar

20. www.istedod.uz
21. www.krugosvet.ru
22. www.yandex.ru
23. www.ziyo.net
24. www.centrasia.ru